



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 20 - aprel

VI-73-50-7-104-K/23

Toyloq tuman hokimligi

2023-yil I chorak yakuni bilan tuman mahalliy budjetining ijrosi to‘g‘risida shuningdek, hudud salohiyatidan kelib chiqqan holda mahalliy budjet daromadlarining qo‘shimcha manbaalaridan foydalanish yo‘nalishlari, jumladan, mahalliy budjet daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari to‘g‘risida

Tumanda Mahalliy budjetning 2023-yil I chorak daromadlar tushumi prognozi 23 718,3 mln so‘mni tashkil etib, hisobot davrida 28 120,1 mln so‘mga bajarildi yoki belgilangan rejaga nisbatan 118,6 foizga bajarilib, daromadlar rejasi 4401,8 mln so‘mga orttirib bajarildi.

Tuman mahalliy budjetining I chorak daromadlar rejasi umumiy tarzda oshirib bajarilgan bo‘lsada, manbaalarning 3 turi bo‘yicha tushumlar rejasi ta‘minlanmadi.

Jumladan, soliq turlari bo‘yicha quyidagicha:

Aylanmadan olinadiga soliq to‘lovi bo‘yicha reja 2 162,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 2 050,8 mln.so‘mga bajarilib 94.9 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 111,2 mln so‘mga bajarilmadi.

Yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i bo‘yicha reja 1050,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 939,9 mln.so‘mga bajarilib 89.5 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 110,1 mln so‘mga bajarilmadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha reja 776,0 mln so‘mni tashkil qilib, haqiqatda 253,8 mln.so‘mga bajarilib 32.7 foizni tashkil etdi yoki belgilangan reja 522,2 mln so‘mga bajarilmadi.

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil I chorak xarajatlari 64 889,6 mln so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, o‘tgan davrda 63 875,4 mln so‘m xarajatlar amalga oshirilib

belgilangan reja nisbatan 98,4 foizga bajarildi.

Tuman mahalliy budjetidan 1-darajali xarajatlar, jumladan, ish haqlari va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ijtimoiy nafaqalar, ish haqiga nisbatan pensiya fondiga ajratmalar va kommunal xizmatlar xarajatlariga to'liq va o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanib kelinmoqda.

2023-yil I choragi davomida mahalliy budjetning zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan 640,0 mln so'm, erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 2 036,0 mln so'm mablag'lar tuman hokimining farmoyishlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari bilan ajratildi.

Tuman mahalliy budjetining ijrosi to'g'risida, shuningdek, hudud salohiyatidan kelib chiqqan holda mahalliy budjet daromadlarining qo'shimcha manbaalaridan foydalanish yo'nalishlari, jumladan, mahalliy budjet daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari to'g'risida tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Sharipovning hisoboti hamda sessiya ishtirokchilarining taklif va mulohazalari tinglanib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining yetmish uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Sharipovning tuman mahalliy budjetining ijrosi shuningdek, hudud salohiyatidan kelib chiqqan holda mahalliy budjet daromadlarining qo'shimcha manbaalaridan foydalanish yo'nalishlari, mahalliy budjet daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xujamurodov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Sharipov) hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov) tuman budjeti daromadlar bazasini kengaytirish borasida mahalliy budjetga qo'shimcha mablag'lar tushirish bo'yicha tizimli ravishda doimiy choralar ko'rib borish;

soliq ma'muriyatchiligi vositalari hisob va tushumlarning to'liqligiga, shu jumladan, soliqlardan bo'yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortish hamda biznesning "soyadan" chiqishini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

naqdsiz to'lovlarni kengaytirish choralari ko'rish hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish;

daromadlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rish;

jamiyatda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish hisobiga davlat budjeti daromadlari parametrlari so‘zsiz bajarilishini ta’minlash kabi vazifalar yuklansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov)ga:

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil I choragi ijrosi davomida mahalliy budjet xarajatlarini maqbullashtirish natijasida shakllanadigan qo‘shimcha manbaalar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman g‘aznachilik bo‘limi (B.Kubayev) budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi va ularning asossiz sarflanishini bartaraf etish ustidan qat’iy nazorat qilinishini ta’minlash borasidagi ishlarni davom ettirish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



B.Xamrayev